



**TOSHKENT SHAHRIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT**
*2020-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklardan tashqari)*



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

69 391



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

3 353



Oilaviy korxonalar

597



Unitar korxonalar

13 574



Xususiy korxonalar

243




Aksiyadorlik jamiyatlar

498




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyatlar
ming birlik



xususiy korxonalar
ming birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar–sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar–sentabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar–sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yilning yanvar–sentabr oylarida 11 059 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 9032ta, xususiy korxonalar – 1 328 ta, oilaviy korxonalar – 434 ta, muassasalar – 114 ta va boshqalar – 151 tani tashkil etdi.

Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,4** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




16,0 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




18,5 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




1,2 marta oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **21,2** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **2,5** foizga oshdi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlar soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 6,9 mingtani tashkil etib, ulardan 6,6 mingtasi yoki 95,6% faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,8 mingtaga yoki 115,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-sentabr oylarida 735 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Mamlakatlar	Jami	shundan:	
			qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
1	 Rossiya Federatsiyasi	1 209	657	552
2	 Qozog'iston Respublikasi	629	287	342
3	 Ozarbayjon Respublikasi	153	47	106
4	 Ukraina Respublikasi	98	53	45
5	 Qirg'iz Respublikasi	79	30	49
6	 Tojikiston Respublikasi	76	36	40
7	 Turkmaniston Respublikasi	60	22	38
8	 Belarus Respublikasi	55	28	27
9	 Armaniston Respublikasi	24	16	8
10	 Moldova Respublikasi	16	4	12


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yillar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent shahri	6 650	2 796	3 854
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	217	79	138
Bektemir	161	91	70
Yunusobod	858	367	491
Mirzo Ulug'bek	833	367	466
Mirobod	1 135	366	769
Shayxontohur	469	229	240
Olmazor	360	198	162
Sirg'ali	298	157	141
Yakkasaroy	1 055	409	646
Yashnobod	525	245	280
Chilonzor	739	288	451

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 135 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,0 %), Yakkasaroy – 1 055 ta (15,8%) hamda Yunusobod tumanlarida 858 tani (12,9 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Sirg'ali – 298 ta (4,5 %), Uchtepa – 217 ta (3,2 %) hamda Bektemir tumanlarida 161 tani (2,4 %) tashkil etgan.

Tumanlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,1 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1%), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,9 %), Uchtepa – (9,2 %), Yakkasaroy – (8,7 %), Mirobod – (8,6 %), Yashnobod – (7,8 %), Sirg'ali – (6,2 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,4 %) tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil yanvar–sentabr oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar–sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (13,0 %), Yunusobod – (11,6 %), Mirzo Ulug'bek – (11,2 %), Uchtepa – (10,2 %), Shayxontohur – (10,2 %), Olmazor – (10,0 %), Yashnobod – (8,2 %), Mirobod – (7,9%), Yakkasaroy – (7,5 %), Sirg'ali – (7,4 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,8 %) tashkil etgan.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2020-yilning yanvar–sentabr oylarida, birlikda)



2020-yilning yanvar–sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Shayxontohur – (15,0 %), Olmazor – (15,0 %), Yunusobod – (11,5 %), Yashnobod – (10,2 %), Chilonzor – (8,5 %), Uchtepa – (8,3 %), Sirg'ali – (8,3 %), Mirzo Ulug'bek – (7,6 %), Yakkasaroy – (7,1 %), Mirobod – (4,6 %) hamda Bektemir tumanlarida (3,9 %) tashkil etgan.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish bo'limi

tel.: 71 203-88-31